

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA
KOMMUNIKATSIYALARINI RIVOJLANTIRISH VAZIRLIGI**

**TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI
QARSHI FILIALI**

5330500-Kompyuter injiniring ta'lim yo'nalishi

**Dasturiy injiniring kafedrası
«WEB-ILOVALARNI YARATISH» fanidan**

KURS ISHI

Mavzu: “O'zbek Milliy Quroqlari” web saytini ishlab chiqish

Bajardi:

(Imzo) (Familiya I.O.)

Qabul qildi:

(Imzo) (Familiya I.O.)

Qarshi-2016 y.

MUNDARIJA

Kirish.....	3
I. Nazariy qisim: Internet va Word Wide Web (WWW) ning tashkil etish tamoyillari.....	4
1.1. Internet xizmati rivojining holati va kelajagi.....	4
1.2. World Wide Web (WWW) rivojlanish tarixi.....	7
1.3. HTML belgilash tili to'g'risida umumiy ma'lumot.....	9
1.4. HTML-sahifaning tuzilishi.....	12
1.5. Elementlar, HTML-teglar va xususiyatlar.....	13
II. Asosiy qism: “O'zbek Milliy Quroqlari” web sayтини ishlab chiqish	
2.1 Sayt strukturasi tuzish.....	16
2.2 Forma hosil qilish.....	17
2.3. Gipermurojaatlar hosil qilish.....	18
Xulosa	20
Foydalanilgan adabiyotlar.....	22

KIRISH

Bugun kompyuter texnologiyalari dunyoda jadallik bilan rivojlanayotgan sohalaridan biriga aylanib, kompyuterlar asta-sekin insonlar hayotiga kirib bormoqda. Yani, faol ish yurituvchini internet global tarmog'isiz, intellektual ishchini esa ish joyida kompyutersiz tasavvur qilish qiyin. Kompyuter texnologiyalari inson hayot tarzida, kichik va katta korxonalarda, kompaniyalarda, o'quv dargohlarida, davlat muassasalarida behad ahamiyat kasb etmoqda.

Hozirgi vaqtda har bir tashkilot qaysi soxada ish olib bormasin, dunyo bozoriga chiqish uchun o'z faoliyatida internetdan foydalanish zarurligiga katta etibor qaratmoqda.

Internetda axborotni joylashtirish uchun uning ekrandagi ko'rinishi qulay bo'lishiga e'tibor berish zarur. Aql bilan yaratilgan sayt, qoida bo'yicha, informatsion yagona bus-butun bo'lishi va joylashtirilgan axborotning ahamiyatiga qarab, ma'lum standartga ega bo'lishi kerak. Hozirda nafaqat xalqimizni, balki jahondagi ko'plab mamlakatlar xalqlarini o'zining go'zalligi, serjiloligi, milliyligi bilan hayratga solgan kashtachilik, quroqchilik va zardo'zli mahsulotlari o'zbek amaliy san'atining o'ziga xosligidan dalolat beradi.

Yuqorida keltirilganlardan Web-saytni yaratish va uni loyihalash jarayonlarini o'rganib chiqish muammolarining kundalik zarurligi va dolzarbliligi kelib chiqmoqda. Xalqimiz xonadonlarida bunday buyumlarning bo'lishi va foydalanilishi o'ziga hos an'ana hisoblanadi. Chunki, quroq namunalarining har biri yaxshi niyatlar ramzidir. Quroq yordamida yaratilgan amaliy san'at namunalari shunchaki buyum emas, balki xalqimiz ezgu maqsad va tilaklarining ramziy belgisi ham bo'lib xizmat qiladi.

Ushbu qo'llanma milliy quroqchilik turlari, tikilish uslublari, ularni zamonaviylik bilan uyg'unlashtirish hamda ayollar liboslarida foydalanish bo'yicha amaliy tavsiyalarni o'z ichiga oladi.

Shu sababdan, ushbu yo'nalish mutaxassislariga, ularning informatsion intellektual faolligi va zamonaviy texnologik madaniyatligiga yuqori talablar qo'yilmoqda. Tashkilot va muassasalarning samarali ishlashi mutaxassis va umuman, jamoaning muvaffaqiyati tadqiqodchi va foydalanuvchilarning zamonaviy kompyuter va Web–texnologiya uslublari va instrumental vositalarini qanday darajada o'zlashtirib olganliklariga ko'p jihatdan bog'liq bo'ladi. Shuning uchun ushbu diplom ish informatsion texnologiyaning yangi va samarali yo'nalishini o'rganishga yo'naltirilgan, shaxsan, Web–texnologiya va WWW butun dunyo cho'lg'aming ishlab turish asoslarini, Web–sahifa–saytlarini yaratish va rejalashtirishni va ularni internetga joylash va reklama qilishning ahamiyati beqiyos katta desak, mubolag'a qilmagan bo'lamiz.

I. INTERNET VA WORD WIDE WEB (WWW) NING TASHKIL ETISH TAMOYILLARI

1.1. INTERNET XIZMATI RIVOJINING HOLATI VA KELAJAGI

Informatsion–kompyuter texnologiyasi muhitida innovatsiya jarayoni juda yuqori suratlarda bilan o'sayotgani odatiy holga aylanib bormoqda. Ayniqsa, bu internet global tarmog'i uchun xarakterlidir. Hozir Internet nafaqat behisob hajmdagi axborotga ega bo'lgan global kompyuter tarmog'i hisoblanishi bilan birga behisob odamlar uchun printsiptial yangi muloqot qilish muhitiga aylanib bormoqda. Internet gorizontaal usul, deb atalishi mumkin bo'lgan yangi insoniy muloqot usulini kashf etmoqda. U paydo bo'lgunga qadar muloqot va axborot tarqalishi asosan vertikal tarzda bo'lgan. Masalan, avtor kitob yozadi, o'quvchilar uni o'qiydi, radio va televideniya eshittirish va ko'rsatuv uzatadi–tamoshabin va tinglovchilar uni ko'radi va tinglaydi, gazeta yangiliklar nashr qiladi–obunachilar uni o'qiydi va h.k. Unga talab juda yuqori bo'lsada, teskari aloqa umuman yo'q edi. Gazetalarga yuboriladigan xatlar, radio va teleko'rsatuvlardagi talab va mulohazalar yuqoridagi fikrimizga guvohlik berib turibdi. Konkret bir kitob o'quvchilari o'rtasida, konkret uzatuv tinglovchilari o'rtasida axborot almashuvi praktik tomondan amalga oshishi qiyin edi. Internet esa, son–sanoqsiz iste'molchilar davrasi uchun axborot tarqalishini ta'minlaydi. Shu bilan birga, ular osongina muhokamaga kirishishlari mumkin bo'ladi.

Hozirgi vaqtda internet global tarmog'i gorizontaal informatsion muloqot uchun ajoyib imkoniyatlarga ega. Hukumat bilan fuqarolar o'rtasida, oxirgilari birinchilar bilan teskari bog'lanish imkoniyatlariga ega. Internetni bizning turmushimizga keng miqyosda tatbiq etishda hech qanaqa tashkilot bo'lmaydi. Tarmoq xuddi hodisa kabi mustaqil rivojlanib boraveradi, butun insoniyat uning dvigateli hisoblanadi. Hozir internetning asosiy g'oyasi–bu axborotlarni erkin ravishda tarqatish va odamlar o'rtasida aloqa tiklashdir. Bu odamlar, xalqlar mamlakatlar o'rtasidagi diniy, ideologik va har xil to'siqlarni olib tashlashdagi eng samarali

yo'ldir. Internet texnologik jarayondagi eng ahamiyatli demokratik ish vositalardan biri hisoblanadi. paydo bo'lishi bilan axborot aksariyat dunyo odamlarining potentsial imkoniyatiga aylanib bormoqda. Telegraf, telefon, radio, televideniya va kompyuter texnikalar chambarchas bog'langan holda barcha global kommunikatsiyalar yagona butunlikda integrallashadi. Bu erda gap axborotni tarqatish mexanizmi, odamlarni birlashtirish, masofa, vaqt, davlat va ko'plab shunga o'xshash chegaralar mavjudligidan qat'iy nazar ularning o'zaro muloqotda bo'lishlari to'g'risida ketmoqda. Internet behisob miqdordagi axborotlarga ega bo'lgan holda, iste'molchilarga katta informatsion xizmat spektrini taqdim etadi. Uni shartli ravishda ikki kategoriyaga bo'lish mumkin: tarmoq abonendlari aro axborot almashuvi; axborotni qidirish va tarmoq ma'lumotlar bazasidan foydalanish.

Tarmoq abonendlari aro asosiy aloqa xizmatiga quyidagilar kiradi

- Telnet–uzoqda turib tarmoqdagi istagan kompyuterni boshqarish rejimi, ya'ni abonentga tarmoqdagi xohlagan EHM da xuddi o'ziniki kabi, ishlash imkonini beradi FTP(File Tragsftr Protocol)–abonentga tarmoqdagi istagan kompyuterda matnli va ikkilik fayllar bilan o'zaro muloqot qilishga sharoit yaratib beruvchi fayllar uzatish protokoli. Uzoqdagi kompyuter fayllari shaxsiy kompyuterga nusxalashgandan keyingina unda ishlash uchun (o'qish, ishlov berish va b.k) kirish imkoniyati beriladi. Fayllarni bir joydan ikkinchi joyga uzatish WWW yordamida amalga oshirilgan taqdirda ham FTP-sistemi o'zining tezkorligi va foydalanishdagi oddiyligi tufayli ommaviy xizmat turi bo'lib qolmoqda.

- Usenet (Usenet Wews roupe)-tarmoq yangiliklari va tarmoqdagi elektron elonlar doskasini olish. Bu sistema ma'lum bir mavzu bo'yicha guruhlariga bo'lingan hujjat (maqola)lar yigindisi sanaladi. Foydanaluvchi o'zini qiziqtirgan mavzuni ko'rsatib mos hujjatlar bilan tanishib chiqishi va o'zinikini yaratishi mumkin.

Yangi xujjatlar guruhining barcha a'zolariga yoki konkret avtorlarga yuborilishi mumkin.

- Elektron pochta (E-mail)-eng ko'p tarqalgan internet xizmati bo'lib, istagan tarmoq abonentini pochta xabarlarini bilan o'zaro muloqotda bo'lib turishini taminlaydi. Elektron pochta harakterli xususiyatlari shuki, xabar adresatga bir necha minut davomida etib boradi. Bunda masofa xech qanday rol o'ynamaydi. Odatiy xatlar esa, oluvchiga bir necha kun hattoki, haftadan keyin etib borishi mumkin.

- Whais-internetning adres kitobi. Uning yordami bilan abonet o'zoqdagi kompyuterga va foydalanuvchilarga tegishli axborotlarni olishi mumkin.
- Yuqorida keltirilgan tarmoqdagi abonentlararo axborot almashuvi xizmatlaridan tashqari, internet ba'zi bir o'ziga xos xizmat turlarini ham taqdim qilishi mumkin, masalan:

- Faks-servis-tarmoq faks serviridan foydalanib, foydalanuvchiga faksimal aloqa orqali xabarlar jo'natish imkonini beradi.

- Elektron tarjimon–o'ziga yuborilgan matnni bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilib beradi.

Bunda elektron tarjimonga murojaat etish elektron pochta orqali amalga oshiriladi.

- Shlyuzlar-abonentga TCP/IP protokollari bilan ishlamaydigan tarmoqda xabarlarini jo'natish imkonini beradi.

Ikkinchi darajali xizmatlarga, ayniqsa axborotlarni qidirish va tarmoq ma'lumotlar bazasi informatsion zaxiralardan foydalanish sistemalariga quyidagilar kiradi:

- Internetda eng ommabop va bir me'yorda rivojlangan xizmat turlaridan biri World Wide Web (WWW)dir. U tadqiqot axborotlari almashuvi uchun ilgari o'ylab topilgan. Hozir esa, ko'pchilik odamlar kundalik hayotining bir qismiga aylanib qoldi. WWW-bu yer sharining istagan nuqtasida saqlanishi mumkin bo'lgan butunlay boshqa sayt yoki kompyuterdagi matnning xohlagan boshqa joyiga havola qilinadigan belgilash so'zlari (buyruqlari) o'rnatilgan global giper matn sistemasi. Giper matn g'oyasining mazmuni shundaki, tarmoqdagi

informatсион zaxiralarga gipermatn modelini yaratishdagi relyatsion yondashishdan foydalanish va uni maksimal oddiy usul bilan bajarish. Bu g'oyani amalga oshirishda to'rtta asosiy vosita ishlab chiqilgan:

–HTML hujjatlarning gipermatn belgilash tili.

–URL(Universal Resource Locator) manzillashning universal usuli.

–HTTP gipermatn axborotlari bilan almashish protokoli. (HTTP–Hyper Text Transfer Protocol).

–CCI (Common Gateway Interface) shlyuzlarining universal interfeysi.

Bu vositalar kitobning navbatdagi bo'limlarida ko'rib chiqiladi.

Kelajakda internet xizmatlari taqdim qilishi tizimida sifatli evolyutsion o'zgarishlar bo'ladi. Ular asosan, odamlar va jamiyatning ehtiyojlarini har tomonlama qondirishga qaratilgan bo'ladi. Kelajakda internet xizmatlari xuddi instrument (asbob) kabi faol xizmat qiladi. Qarorlar qabul qilish va o'qitishni tashkil etish, odamlar o'rtasidagi muloqot va hamkorlik, XXI asr telefoni, marketing, biznes, dam olish va boshqalar.

Barcha xizmatdagi foydalanuvchilarni qiziqtiradigan jihatalar tezkorlik; arzon global aloqa; muloqot va axborot almashuvidagi qulaylik; kira olinadigan dasturlar, ajoyib tarmoq zaxiralari va boshqalar. Ular global tarmoqni o'zlarining xususiy intellektual imkoniyatlariga qo'shimchadek qaraydilar.

Hozirgi vaqtda axborot asri boshlanajagi, unga bo'ladigan talab va talabgorlar sonining to'xtovsiz oshib borajagini hamma anglamoqda. Tabiiyki, ishonchli va operativ axborotsiz vaqt bilan baravar qadam tashlab bo'lmaydi, inson faoliyatining xohlagan sohasida qo'yilgan maqsadga erishib bo'lmaydi. Shuning uchun barchamiz har xil internet xizmatlaridan potentsial foydalanuvchi bo'lib boramiz.

1.2. WORLD WIDE WEB (WWW) RIVOJLANISH TARIXI

Butun dunyo cho'lg'ami (pautina) Word Wide Web (WWW) yoki (W3) 1989 yili paydo bo'ldi. Uning mohiyati Shveysariyadagi CERN (The European Laboratory for particle physics–elementar zarrachalarning Evropa laboratoriyasi)

deb nomlangan laboratoriyaning bir guruh olimlari ishlab chiqdilar. Tabiiyki, bunday hujjatlar bilan ishlash asosi etib internet tanlangan. CERN global tarmoqdagi eng gavjum joylardan biri hisoblangan. Bu muammo bilan laboratoriya xizmatchisi fizik Tim Berners-Li shug'ullandi va 1991 yilda o'z rejasini oxiriga etkazdi.

1960 yili amerikalik olim Teodor Xolm Nelsonning shunga o'xshash muammo bilan mashg'ul bo'lganini aytib o'tish zarur. U o'z oldiga shunday maqsad qo'ygan edi: insoniyat yaratgan har xil qiymatdagi matnli hujjatlarni maxsus kompyuter tarmog'iga birlashtirish va ularni o'zaro mantiqan bog'lash. Bunda foydalanuvchi asosiy yoki qo'shimcha axborotli ixtiyoriy hujjatning bir joyidan boshqasiga o'tishi mumkin. 1965 yili Nelson T.X. bunday matnli axborotlarni tashkil etish uslubini gipermatn, o'zining amalga oshmagan loyixasini esa, Xanadu deb nomladi. Ana usha T. Nelsonning Xanadudagi g'oyasi WWW ning rivojiga turtki bo'ldi.

1993 yili amerikalik talaba Mark Andressen Mosaic Web–sharxlovchi dasturini yozdi. Bu dastur birinchilar qatori grafik interfeysga ega bo'ladi va sichqoncha bilan ishlay boshlaydi. Mosaic ishlatish uchun qulay UNIX, PC va Macintosh platformalarida ishlaydi va bepul tarqatiladi.

Biroq, vaqt o'tgach tadqiqotchi Mosaic asoschi Silicon Graphics bilan birlashdi. Ular hozirgi kunda boshlovchi brauzer–Netscape ni yaratdilar. Taxminan Webdagi barcha trafiklarning 80% Netscape ga to'g'ri keladi. Xonadonlardagi kompyuterlarni Netscape bilan tekin yuklash mumkin.

Keyinroq bozorda Microsoft kompaniyasi mahsuloti Internet Explorer nomli yangi brauzer paydo bo'ldi. U ham tezda internet tarmog'iga kiritila boshladi. Qaysi bir jihatdan WWWning mashhur bo'lib ketishi Microsoft Windowsga o'xshab ketadi. Windows MS DOS matn barcha vazifalarni qulay grafik interfeys orqali bajaradi.

Kelajakdagi WWW brauzer va kompyuterlarda axborotlarning tashqi ko'rinishi bilan boshqariladigan, ishlatishda eng qulay til HTML bilan chambarchas bog'lanadi. Oxirgi yillar mobaynida HTML da bir qancha o'zgarishlar sodir bo'ldi.

1999 yil 24 dekabr maxsus notijorat tashkilot WWW Consortium (W3S) tomonidan qabul qilingan HTML fayllari, audio–videokliplar bilan ishlashda, ayniqsa sahifalarni o'zaro bog'lashda katta qulayliklar yaratdi.

1.3. HTML BELGILASH TILI TO'G'RISIDA UMUMIY MA'LUMOT

Butun dunyo o'rgimchagi–World Wide Web (WWW) HTML gipermatn bog'lanish tili yordamida tuzilgan Web-sahifalardan iborat HTML ancha murakkab til (Standart Generalized Markup Language SGMLning hisoblanadi. Ananaviy tushuncha bo'yicha HTML butunlay dasturlash tili hisoblanmaydi. HTML–hujjatni belgilash tili. HTML–hujjatni tadqiq qilishda matnli hujjatlar teg(tag)lar bilan belgilanadi. Ular maxsus burchakli ishoralar bilan o'rlagan bo'ladi, (< va >). Teglar matnlarni formatlashda va matnga har xil nomatn elementlarni masalan, grafiklar, qo'shimcha ob'ektlar va shu kabilarni o'rnatishda ishlatiladi.

HTML tilining asosiy qoidalari quyidagicha:

1 – **qoida.** HTMLdagi istagan harakat teglar bilan aniqlanadi. Bitta teg (chap) harakatning bosh qismida, ikkinchisi esa, (o'ng) oxirida turadi. Bunda teglar « < » yoki « > » ishoralar bilan yonma-yon turadi. Yolg'iz o'zi ishlatiladigan teglar ham mavjud.

2 – **qoida.** Brauzer darchasidagi burchakli qavs ichiga joylashtirilgan istagan teg yoki boshqa instruktsiya tashqariga chiqarilmaydi va HTML–fayl uchun ichki buyruq hisoblanadi.

Shakl: <HTML>.....sahifa matni...</HTML> bunda chapki teg <HTML> HTMLdagi hujjatning boshlanishini, </HTML> teg esa oxirini anglatadi. Agar brauzer chapki tegga duch kelsa, navbatdagi matn–bu HTMLdagi kod ekanligi ma'lum bo'ladi. Brauzer o'z darchasida tegni emas, balki teglar o'rtasidagi matnni ko'rsatadi. Bu teglar bilan HTMLdagi istagan hujjat boshlanadi va tamom bo'ladi.

HTML qoidalariga ko'ra, yopuvchi (o'ng) teg xuddi ochuvchi (chap) teg singari yoziladi, lekin teg nomi oldiga «|» (to'g'ri slash) simvoli qo'shib qo'yiladi. Qo'shaloq teglar orasida yagona printsiptial farq shundaki, yopuvchi teglar parametrlardan foydalanmaydilar.

Mos yakunlovchi teglarga muxtoj bo'lgan teglar konteyner teglar deyiladi. Ochuvchi va yopuvchi teglar orasida yozilganlarning barchasi teg-konteynerga tegishli bo'ladi. Ba'zida yakunlovchi tegni tushirib qoldirsa ham bo'ladi. Masalan, <TD> jadvalining yacheykasidagi ma'lumotlarni ifodalovchi teg uchun unga mos bo'lgan yopuvchi teg <| TD> ni doimo tushirib qoldirish mumkin, jadval yacheykasi uchun ma'lumotlarning tugallanganligi navbatdagi <TD> tegning paydo bo'lishi orqali aniqlanadi.

Qator teglar yakunlovchi teglarga muxtoj bo'lmaydi. Misol tariqasida quyidagilarni keltirish mumkin: tasvirni o'rnatish tegi;
 satrining majburiy ravishda uzatilishi; <BASEFONT> bazaviy shriftning ko'rsatmasi va boshkalar. Ko'pincha tegning mohiyatiga qarab uning yakunlanishiga muhtojligi to'g'risida fikr qilish mumkin.

HTMLda teglarning noto'g'ri yozilishiga e'tibor berish odat tusiga kirmagan. Noto'g'ri yozilgan teg yoki uning parametrini brauzer aniqlanishi kerak. Bu barcha brauzerlar uchun umumiy qoidadir. Ba'zan brauzerlar ta'siri ostiga xato yozilgan teglar bilan birga, brauzerning ma'lum versiyasi anglanmagan teglar ham tushib qoladi.

HTML teglari «hissa qo'shish» darajasi bo'yicha ajralib turadi. Murakkab HTML–hujjatlarda ba'zi elementlarning xissa qo'shish darajasi 10dan ham oshishi mumkin. Bunda oldingi hissa qo'shish darajasida bo'lgan teglar mavjud teglarga nisbatan Bosh (roditelskiy) teg deyiladi. Mavjud teg esa, tarmoqlanib chiqqan (docherniy) yoki sho''ba teg hisoblanadi. O'z navbatida, sho''ba–teg o'z hissasini qo'shgan boshqa teglarga nisbatan bosh teg hisoblanishi mumkin.

Teglar parametrlar yoki atributlar (ang. attribute) bilan yozilishi mumkin. Ruxsat etilgan parametrlar yig'indisi har bir teg uchun individual hisoblanadi. Parametrlar yozishining umumiy qoidasi quyida keltirilgan. Teglar nomidan keyin

bir-birlari bilan probellar bilan ajralib turadigan teglar yozilishi mumkin. Teg parametrlarining ketma-ketligi ixtiyoriy ravishda bo'ladi. Ko'p parametrlar ularning mohiyatini (znachenie) ko'rsatishni talab qiladi, lekin ba'zi parametrlar ularsiz yozilib fikr bildirmaslik (jim turish)ni ma'qul ko'radi. Agar parametr mohiyat talab qilsa, u holda parametr nomidan keyin tenglik (=) ishorasi orqali ko'rsatiladi. Parametr mohiyati qavs ichida yoki kavssiz yozilishi mumkin. Agar parametr mohiyatida probel ishtirok etgan bo'lsa, u holda qavs, albatta yoziladi. Parametr mohiyatida (teg va parametrlar nomidan farqli ravishda) ba'zida yozuv registri muhim bo'ladi. Tegning parametr bilan yozilishiga misol:

<TABLE BORDER ALIGN> "left">

Bu erda <TABLE> tegi uchun ikkita parametr berilgan. Moxiyatsiz ko'rsatilgan birinchi parametr BORDER. Ikkinchi parametr ALIGN left mohiyatiga ega.

HTML teglari turli xil parametrga ega bo'lishi mumkin, lekin barcha teglarga mos tushadigan qator parametrlar ham mavjud. Masalan, HTML hujjatidagi <BODY> bulimida foydalanishga ruxsat etilgan barcha teglar quyidagi parametrlarga ega bo'lishi mumkin: CLASS, ID, LANG, LANGUAGE, STYLE va TITLE. Parametrlar CLASS, ID, STYLElar Internet Explorerning 3.0 versiyasidan boshlab va Netscapening 4.0 versiyasidan boshlab quvvatlanib keladi. Bu parametrlar uslub (stil)lardan foydalanilganda kerak bo'ladi. Parametrlar LANG, LANGUAGE, TITLElar faqat Internet Explorerning 4.0 versiyasidan boshlab quvvatlanib keladi. Bu parametrlar mos kelgan foydalanadigan tillarni ko'rsatadilar (masalan, Rossiya uchun LANG=ru), skript yozish tilini (masalan, LANGUAGE=JavaScript) va boshqalar.

Zamonaviy HTMLda til teglari va unda ko'rsatilgan qiymatlar bilan birga, boshlang'ich HTML-kodda stsenariy kodlari(JavaScript yoki VB Script) ham yoziladi.

90-yillarning o'rtalarida internet tarmog'ining eksponentsial o'sishi oqibatida HTML tili ommaviy tus oldi. Bu vaktga kelib, tilni standartizatsiyalash zarurati tug'ildi, chunki ko'p kompaniyalar Internetga kirish uchun ko'plab dasturiy

ta'minotlar ishlab chiqdilar, to'xtovsiz o'sib borayotgan (HTML instruktsiyasi bo'yicha) o'zlarini variantlarini tavsiya qildilar. HTML tili teglarini qo'llash bo'yicha yagona bir qarorga kelish payti yaqinlashgan edi.

Internetda birinchi marta ko'rsatilgan (taqdim qilingan) HTMLdagi DTD–standartning 1.0 versiyasi bo'ldi. So'ngra 1995 yil noyabr oyida WWW uchun ancha aniq va o'ylab qilingan 2.0 versiya yaratildi.

1996 yil sentyabr oyida bir necha oylik muxokamadan so'ng 3.2 versiya tasdiqlandi (3.0 versiya nashr qilinmadi).

1997 yil iyun oyida HTML–standartining 4.0 versiyasi e'lon qilindi va 1997 yil dekabrda rasmiy standartga aylandi.

Simvolik nomlar Rezervlangan simvol	Simvolik nomlar
Qavs («»)	& quot;
Ampersand(&)	& mp;
Kichik(<)	& it;
Katta(>)	& t;
Uzluksiz probel (matn satrlarga bo'linib ketmaydi)	& nbsp;
Huquq(©)	& copy;
Tijorat markasi (®)	& red;

Barcha simvollar o'z qoldiqlariga ega bo'lishlari mumkin. Masalan, uzluksiz probel simvoli kodi 160 bo'ladi. U o'nlik kodida &# 160 ko'rinishida yoziladi.

1.4.HTML-sahifa tuzilishi

HTML sahifada hujjat sarlavhasi (Head) va tanasini (Body) ajratib ko'rsatish mumkin. Sarlavhada, asosan sahifa to'g'risidagi ma'lumotlar saqlanadi va ularning ko'pchiligi Web-sahifa ko'rinishiga ta'sir qilmaydi. Sarlavhadan tashqari barcha ma'lumotlar sahifa tanasida joylashtiriladi va ekranda ko'rinadi.

Sahifa sarlavhasi va tanasi aniq ketma-ketlikda joylashtiriladigan maxsus teglar bilan aniqlanadi.

Sahifaning HTML-kod tuzilishi.

< HTML>

< Head >

Sahifaning sarlavha bo'limi. Bu erda ishchi ma'lumotlar teglari joylashtiriladi.

</ Head >

< Body>

Bu erda joylashtirilgan barcha ma'lumotlar Web-sahifada akslantiriladi.

</ Body>

</ HTML>

Tuzilishi jihatdan to'g'ri HTML-kod **< HTML>** tegdan boshlanadi. Ochilgan **< Head >** tegi va yopilgan **< \Head >** tegi sarlavha bo'limini tashkil etadi. Sarlavha tarkibiga hujjat haqidagi boshlang'ich ma'lumotlar kiritiladi. HTML-faylning asosiy qismi hujjat tanasidir va u **< Body>** va **</ Body>** teglari yordamida tashkil etiladi. Bu teglar orasida brauzer oynasida ko'rsatiladigan barcha ma'lumotlar joylashtiriladi. HTML-kod yopiladigan **</ HTML>** teg orqali tugallanadi.

1.5.Elementlar, HTML-teglar va xususiyatlar (atributlar)

HTML tili elementlar, teglar va xususiyatlarga ajratilgan. Element - ma'lumotlar joylashtirilgan ochiladigan va yopiladigan teglardan tashkil topgan.

Misol: **<p align="justify">** Bu oddiy abzats **</p>**

Bu erda sahifadagi abzats element hisoblanadi.

Teglar nomlar orqali ajratiladi hamda katta va kichik belgisi («<» va «>» simvollarini) orqali ko'rsatiladi. Teg nomi element tarkibidagi ma'lumot ekranda qanday ko'rsatilishini aniqlaydi. Masalan, birinchi misoldagi **<p>** tegi abzatsni hosil qiladi.

Atributlar teg harakatini aniqlashtiradi. Masalan, **align="justify"** ushbu abzats uchun ikki tomondan tekislashni o'rnatadi.

Teglardan foydalanish vaqtida quyidagi qoidalarga rioya qilish kerak:

- Barcha standart teglar «<» simvolidan boshlanadi va «>» simvoli bilan tugaydi. (Masalan, **<HTML>**)

- Teg nomini tashkil etuvchi simvollar orasida bo'sh joylar (probel) qo'yish mumkin emas. Shuningdek, teg nomi va belgilar orasida ham bo'sh joy qo'yish tavsiya etilmaydi.
- Xar qaysi ochiladigan teg uchun mos ravishda yopiladigan teg ham bo'lishi kerak. Yopiladigan teg bilan ochiladigan teg o'rtasidagi farq uning nomi oldidagi «/» belgisi hisoblanadi. (</HTML>).
- HTML-kodni yaratishda teg nomi uchun faqat quyi registrdagi simvollarni ishlatish.
- Teglarni ajratish uchun, shuningdek birinchi atributni teg nomidan ajratishda bo'sh joy ishlatiladi. Atribut qiymati tarkibidagi bo'sh joylar ham xatoliklarga olib kelishi mumkin.
- HTML-hujjat tuzilishiga e'tibor bering. Asosiy teglarni to'g'ri tartibda va qat'iy ierarxiyada joylashtiring.

Atributlar teg ishini aniqlashtiradi. Ko'pgina teglarda atributlar berilishi shart emas, lekin shunday teglar ham mavjudki, ularda atributlar keltirilishi shart.

<p> va </p> teglari sahifada abzats o'rnatadi. Ochuvchi <p> tegi faqat nomdan tashkil topgan bo'lishi mumkin. Lekin, zaruriyat tug'ilganda uning tarkibiga ayrim atributlarni qo'shish mumkin. Masalan, <p> tegi tarkibida abzats tekislanishini o'rnatuvchi align atributi keltirilishi mumkin.

Atributlar faqat ochuvchi teg tarkibida bo'lishi mumkin. Yopuvchi teg tarkibida atribut o'rnatishga urinmang. Masalan, ochuvchi teg <p align="justify"> to'g'ri tuzilgan. Unga yopuvchi teg </p> mos keladi. Teg tarkibida bir necha atributlar joylashtirilishi mumkin.

Ko'pchilik atributlarga qiymat beriladi. Aynan ana shular oxirgi bosqichda teg bajarilish tartibini belgilaydi. Yuqorida keltirilgan align atributiga justify qiymati o'rnatilgan. Atribut qiymati qo'shtirnoqlarda ko'rsatiladi.

II. “O‘zbek Milliy Quroqlari” web saytini ishlab chiqish


2.1.Sayt strukturasi tuzish

Dastlab “O‘zbek Milliy Quroqlari”ning web-saytini yaratish jarayonini milliy quroqlarga oid ma’lumotlarni to’plash, ularni qayta ishlash kabilar bilan boshlandi. Web-sahifa strukturasi tuzib olindi, dizayni hosil qilindi. To’qqizta sahifa: Bosh sahifa, Quroq haqida umumiy ma’lumot ,Quroq turlari, Dunyo quroqlari kabi sahifalarni yaratib olindi. Har bir sahifani nomiga monand ma’lumotlar bilan boyitildi. `<ul class="art-vmenu"><li><a href="annotatsiya.html" class="active">ANNOTATSIYA</a>` bosh sahifaga yo’naltiruvchi ssilka javascript va html bilan birgalikda yozilgan.

Web saytimizda Html va Javascriptdan keng foydalanilgan. Misol uchun saytimiz dizayni va menyular satri Javascriptda yaratilgan. `<a href="dunyo-quroqlari-olami.html">DUNYO QUROQLARI OLAMI</a>`. Matnlar ustida dasturning Properties bandida berilgan shriftlar hajmi, rangi, stili, qalinligi, turish holati, formati, gipermurojaati kabilar bilan ishladik.



2.1.-rasm. Bosh sahifa.



2.2.-rasm. Saytning kodi.

```
<div class="art-postcontent art-postcontent-0 clearfix"><div class="art-content-
layout-wrapper layout-item-0">
```


```
<div class="art-content-layout">
```

```
<div class="art-content-layout-row">
```

```
<div class="art-layout-cell layout-item-1" style="width: 100%" >
```

```
<p style="text-align: center;"><span style="color: rgb(212, 93, 2); font-
family: 'Trebuchet MS', Arial, Helvetica, sans-serif; font-size: 24px; text-shadow:
rgb(255, 255, 255) 1.4px 1.4px 0px, rgba(23, 23, 23, 0.789063) 2.1px 2.1px
0px;">ANNOTATSIYA</span><br></p><p class="MsoNormal" align="center"
style="text-align: center;">&nbsp;<br></p>
```

Bu yerda Javascript va Html yordamida “ANNOTATSIYA“ sarlavha qismi to’g’irlashni amalga oshirildi. Web-sahifaga rasmi ma’lumotlarni yuklash uchun faylda mavjud rasmlarni dasturga chaqirib oldik. Rasm balandligi va enining o’lchamini, rasm atrofining qalinligini belgilab oldik. Bundan tashqari Notepad++ dasturida yuklangan rasm ustida bir qator amallarni bajarish mumkin, ya’ni, rasm shaklini belgilash, ortiqcha qismlarini kesib tashlash, yorqinligini



20

XULOSA

Web-sahifalarni yaratish va undan foydalanish ta'lim tizimida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'limda Web-sahifalardan nafaqat tijorat yoki namoyish vositasi sifatida, balki bilim berish maqsadlarida ham foydalanish mumkin. Albatta bunda ta'lim masofadan turib amalga oshiriladi. Bunday ta'lim berish jarayoni o'qituvchi va o'quvchi to'g'ridan-to'g'ri muloqot qilmasdan olib boriladi. Buning uchun ta'lim beruvchi (oliy o'quv yurti, maktab va boshqalar) o'qitiladigan predmetga tegishli ma'lumotlarni Web-sahifalarga har hil ko'rinishlarda (matn, rasm, jadval, animatsiya, tovushli ma'lumot va hatto video tasma ko'rinishida) joylashi kerak.

Quroqlarning barchasi shakli, bezaklariga ko'ra o'ziga hos bo'lgan ma'no, mazmunga ega bo'lsada, aslida ular barchasining tub negizida xalqimizga xos bo'lgan yagona ezgu-maqсад yotadi, u ham bo'lsa momolarimiz ta'biri bilan aytganda “yurtimiz insonlari ulashib, qurashib, farzandlari esa bir birini quvlab yursin”. Demak quroq yordamida yaratilgan amaliy san'at namunalari shunchaki buyum emas, balki xalqimiz ezgu maqsad va tilaklarining ramziy belgisi ham bo'lib xizmat qiladi.

Xalqimiz xonadonlarida bunday buyumlarning bo'lishi va foydalanilishi o'ziga hos an'ana hisoblanadi. Chunki, quroq namunalarining har biri yaxshi niyatlar ramzidir. Quroq yordamida yaratilgan amaliy san'at namunalari shunchaki buyum emas, balki xalqimiz ezgu maqsad va tilaklarining ramziy belgisi ham bo'lib xizmat qiladi.

Ushbu ishlab chiqilgan web sayt milliy quroqchilik turlari, tikilish uslublari, ularni zamonaviylik bilan uyg'unlashtirish hamda ayollar liboslarida foydalanish bo'yicha amaliy tavsiyalarni o'z ichiga oladi. Bu web sahida Html va Javascriptdan foydalanilgan holda ushbu saytimizni yaratdik. Ta'limning bunday ko'rinishi masofaviy ta'lim deb yuritiladi. Masofaviy ta'lim bugungi kunga kelib

dunyoning ko'plab rivojlangan davlatlarida qo'llanilib kelinmoqda. Masofaviy ta'limdan foydalanish natijasida vaqt va pulni tejash, ortiqcha ovoragarchiliklarsiz bilim olish imkoniyatlariga ega bo'linadi. Bunday imkoniyatlarni bizga Web-sahifalari yaratib beradi.

Ma'lum predmetga tegishli ma'lumotlarni (matn, rasm, jadval, animatsiya va boshqalarni) sahifalarga joylab, ularni doimiy ravishda to'ldirib borish, o'quvchilarni bilimlarini baholash uchun nazorat test savollarini kiritish imkoniyatlari mavjud. Buning natijasida o'quvchining olgan bilimini nazorat qilish, baholash imkoniyatlari paydo bo'ladi. Bu esa Web-tehnologiyadan ta'limda foydalanishning eng optimal variantlaridan biri hisoblanadi.

Professional dasturlar qatoriga kiruvchi Notepad++ dasturi o'zining barcha imkoniyatlari bilan har qanday murakkablik va masshtabdagi HTML va Javascript sahifalarni yaratish va o'zgartirishga qodir. U vizual loyihalash (WYSIWYG) rejimini ta'minlab, dastlabki matnli WEB - hujjatlarning juda aniq ishlashi bilan ajralib turadi va katta tarmoqli loyihalarning qo'llab quvvatlovchi ichki qurilgan vositalarga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. A.R.Marahimov, S. I. Rahmonqulova «Internet va undan foydalanish asoslari». Toshkent-2001.
2. Matrosov, Sergev, CHaunin. HTML 4.0 v podlinnike. BHV-SPb, 2000
3. Vaynam L, Vaynam V, Dinamicheskiy HTML. Diasoft 2001
4. Uilton P. Java Script. Основы. Simvol-plyus. 2002
5. M.Aripov. Internet va E-mailda ishlash, Universitet nashriyoti, 2000.
6. Microsoft FrontPage 2000. Shag za shagom.M., EKOM,2000.
7. I.SHaposhnikov. Web - sayt svoimi rukami. SPb.:BHV-Peterburg, 2000.
8. D. Kirsanov. Veb-dizayn. -SPb: Simvol-Plyus,2001.

Ilova

```
<!DOCTYPE html>
<html dir="ltr" lang="en-US"><head>
  <meta charset="utf-8">
  <title>Bosh sahifa</title>
  <meta name="viewport" content="initial-scale = 1.0, maximum-scale =
1.0, user-scalable = no, width = device-width">

  <link rel="stylesheet" href="style.css" media="screen">
  <!--[if lte IE 7]><link rel="stylesheet" href="style.ie7.css"
media="screen" /><![endif]-->
  <link rel="stylesheet" href="style.responsive.css" media="all">
  <script src="jquery.js"></script>
  <script src="script.js"></script>
  <script src="script.responsive.js"></script>
  <style>.art-content .art-postcontent-0 .layout-item-0 { margin-right: 10px;
}
.art-content .art-postcontent-0 .layout-item-1 { padding-top: 0px;padding-
right: 10px;padding-left: 0px; }
.ie7 .art-post .art-layout-cell {border:none !important; padding:0
!important; }
.ie6 .art-post .art-layout-cell {border:none !important; padding:0
!important; }
</style></head>
<body>
<div id="art-main">
<header class="art-header">
  <div class="art-shapes">
</div>
```

```

<div class="art-slider art-slidecontainerheader" data-width="900" data-
height="520">
    <div class="art-slider-inner">
        <a class="art-slide-item art-slideheader0">
        </a>
        <a class="art-slide-item art-slideheader1">
        </a>
        <a class="art-slide-item art-slideheader2">
        </a>
        <a class="art-slide-item art-slideheader3">
        </a>
        <a class="art-slide-item art-slideheader4">
        </a>
    </div>
</div>

<div class="art-slidenavigator art-slidenavigatorheader" data-left="90.56">
    <a href="#" class="art-slidenavigatoritem"></a><a href="#" class="art-
slidenavigatoritem"></a><a href="#" class="art-slidenavigatoritem"></a><a
href="#" class="art-slidenavigatoritem"></a><a href="#" class="art-
slidenavigatoritem"></a>
</div>

<h1 class="art-headline" data-left="80.58%">
    <a href="#">Quroq turlari va ularni ayollar kiyimlarida qo'llash</a>
</h1>

<h2 class="art-slogan" data-left="88.52%">Elektron uslubi
qo'llanma</h2>
</header>

<div class="art-sheet clearfix">
    <div class="art-layout-wrapper">
        <div class="art-content-layout">

```

```

<div class="art-content-layout-row">
    <div class="art-layout-cell art-sidebar1"><div class="art-
vmenublock clearfix">
        <div class="art-vmenublockcontent">
            <ul class="art-vmenu"><li><a href="annotatsiya.html"
class="active">ANNOTATSIYA</a></li><li><a href="new-page-
2.html">QUROQ HAQIDA UMUMIY MA'LUMOT</a></li><li><a
href="new-page-3.html">QUROQ TURLARI</a><ul><li><a href="new-page-
3/gul-quroq.html">GUL QUROQ</a></li><li><a href="new-page-
3/hrizantema.html">HRIZANTEMA</a></li><li><a href="new-page-3/kashta-
quroq.html">KASHTA QUROQ</a></li><li><a href="new-page-3/olma-
quroq.html">OLMA QUROQ</a></li><li><a href="new-page-3/olmali-parcha-
quroq.html">OLMALI PARCHA QUROQ</a></li><li><a href="new-page-
3/parcha-quroq.html">PARCHA QUROQ</a></li><li><a href="new-page-
3/qamay-quroq.html">QAMAY QUROQ</a></li><li><a href="new-page-
3/shaxmat-quroq.html">SHAXMAT QUROQ</a></li><li><a href="new-page-
3/tasmali-quroq.html">TASMALI QUROQ</a></li><li><a href="new-page-
3/tirnoqcha-quroq.html">TIRNOQCHA QUROQ</a></li><li><a href="new-
page-3/tish-quroq.html">TISH QUROQ</a></li><li><a href="new-page-
3/turna-quroq-1.html">TURNA QUROQ 1</a></li><li><a href="new-page-
3/turna-quroq-2.html">TURNA QUROQ 2</a></li><li><a href="new-page-
3/yulduzcha-quroq.html">YULDUZCHA QUROQ</a></li></ul></li><li><a
href="new-page-4.html">TAYYORLANISH
TEKNOLOGIYASI</a><ul><li><a href="new-page-4/gul-quroq.html">GUL
QUROQ</a></li><li><a href="new-page-
4/hrizantema.html">HRIZANTEMA</a></li><li><a href="new-page-4/kashta-
quroq.html">KASHTA QUROQ</a></li><li><a href="new-page-4/olmali-
parcha-quroq.html">OLMALI PARCHA QUROQ</a></li><li><a href="new-
page-4/parcha-quroq.html">PARCHA QUROQ</a></li><li><a href="new-
page-4/qamay-quroq.html">QAMAY QUROQ</a></li><li><a href="new-

```

[page-4/shaxmat-quroq.html](new-page-4/shaxmat-quroq.html)">SHAXMAT QUROQTASMALI QUROQTIRNOQCHA QUROQTISH QUROQTURNA QUROQYULDUZCHA QUROQOLMA QUROQLIBOSLARDA QO'LLANISHIApplikatsiyali quroqning ayollar libosda qo'llanilishiHrizantema quroq turning ayollar libosda qo'llanilishiShaxmat quroqning ayollar libosida qo'llanilishiTirnoqcha quroqning libosda qo'llanilishiTurna quroqning libosda qo'llanilishiKOLLEKSIYAGULI ANORSARVIRAVONQALB YOSHISEMURG'SHARQONA MUHABBATDUNYO QUROQLARI OLAMIMUALLIF HAQIDAGLOSSARYFOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

xalqlarini o'zining go'zalligi, serjiloligi, milliyligi bilan hayratga solgan kashtachilik, quroqchilik va zardo'zi mahsulotlari o'zbek amaliy san'atining o'ziga xosligidan dalolat beradi. </p>

<p class="MsoNormal" style="text-indent: 35.4pt; line-height: 150%;">Ma'lumki, quroq- bu bitta buyumda rangi va fakturasi turlicha bo'lgan gazlama qoldiqlarini birlashtirish usulidir.</p>

<p class="MsoNormal" style="text-indent: 35.4pt; line-height: 150%;"> Qadimdan yurtimiz chevarlari tomonidan quroqlarning turli xil shakllari yaratilgan va ularni qo'llab kundalik hayotda ishlatish uchun ajoyib buyumlar tikilgan.</p>

<p class="MsoNormal" style="text-indent: 35.4pt; line-height: 150%;">Xalqimiz xonadonlarida bunday buyumlarning bo'lishi va foydalanilishi o'ziga hos an'ana hisoblanadi. Chunki, quroq namunalarining har biri yaxshi niyatlar ramzidir. Quroq yordamida yaratilgan amaliy san'at namunalari shunchaki buyum emas, balki xalqimiz ezgu maqsad va tilaklarining ramziy belgisi ham bo'lib xizmat qiladi.</p>

<p class="MsoNormal" style="text-indent: 35.4pt; line-height: 150%;">Ushbu qo'llanma milliy quroqchilik turlari, tikilish uslublari, ularni zamonaviylik bilan uyg'unlashtirish hamda ayollar liboslarida foydalanish

bo'yicha amaliy tavsiyalarni o'z ichiga oladi.</p>

</div>

</div>

</div>

</div>

</div>

</article></div>

</div>

</div>

</div><footer class="art-footer">

<p>SHERMAMATOV SHAKHZOD © 2016, QUROQLAR HAQIDA/
ELEKTRON USLUBIY QO'LLANMA</p>

</footer>

</div>

</div>

</body></html>